

№ 07-5/43
2026 y. "4" iyen

“TASDIQLANGAN”

“ANOR BANK” AJ

Kuzatuv kengashining

2026-yil "26" may dagi

25 sonli yig'ilish Bayoni

Kuzatuv Kengashi Raisi

Sh. Nosirov



«ANOR BANK» AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv
tizimi bo'yicha xabardorlikni oshirish va o'qitish

DASTURI

1. DASTUR MAQSADLARI

Korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samarali ishlashi uchun xodimlarning to'liq xabardorligi va kerakli ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur. Ushbu bo'lim dasturning asosiy maqsadlarini belgilaydi, chunki faqat aniq va tushunarli maqsadlar mavjud bo'lgandagina o'qitish jarayoni tizimli va natijali bo'ladi. Bu bizga korrupsiyaviy xavflarni oldini olish, axloqiy madaniyatni mustahkamlash va ISO 37001:2025 talablariga muvofiqlikni ta'minlash imkonini beradi.

Dasturning asosiy maqsadlari:

- Bank xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosati, tartib-taomillari va o'z vazifalarini to'liq bilishini ta'minlash;
- Bankning yetkazib beruvchilar va uchinchi tomonlar bilan ishlashdagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, oldini olish va ularga nisbatan choralar ko'rish bo'yicha zarur malaka va ko'nikmalarni shakllantirish;
- Bankda korrupsiyaga nisbatan toqatsizlik tamoyiliga asoslangan axloqiy va shaffof muhitni mustahkamlash;
- ISO 37001:2025 xalqaro standartining 7.3-band talablariga to'liq muvofiqlikni ta'minlash va Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi samaradorligini doimiy ravishda oshirish.

2. QO'LLANILISH SOHASI VA QAMROV

Dastur «ANOR BANK» AJning barcha xodimlariga (markaziy apparat, barcha bo'linmalar), shuningdek, zarur hollarda xizmat ko'rsatuvchi yetkazib beruvchilar va uchinchi tomonlarning xodimlariga tatbiq etiladi.

Xodimlar xavf darajasiga qarab quyidagi toifalarga bo'linadi:

- Yuqori xavf darajasi – kredit berish, ijara faoliyati, xaridlar, shartnomalar tuzish va uchinchi tomonlar bilan ishlash bilan bog'liq lavozimlarda ishlaydigan xodimlar;
- O'rta xavf darajasi – o'rta darajadagi korrupsiyaviy xavf bilan bog'liq vazifalarni bajaruvchi xodimlar;
- Past xavf darajasi – korrupsiyaviy xavfi past bo'lgan lavozimlarda ishlaydigan xodimlar.

3. DASTURNING ASOSIY TAMOYILLARI

Dastur quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Xavfga asoslangan yondashuv va mutanosiblik: O'qitish hajmi, chuqurligi va muntazamligi har bir toifadagi korrupsiyaviy xavf darajasiga muvofiq belgilanadi;
- Muntazamlilik va uzluksizlik: Xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi asosiy hujjatlari bilan tanishtirish har yili kamida bir marotaba va maxsus o'qitish esa xavf darajasiga qarab muntazam ravishda o'tkaziladi;
- Amaliy yo'naltirilganlik: O'qitish real holatlar va Bank tajribasiga asoslanadi;
- Majburiylik: Dasturdan o'tish barcha xodimlar uchun majburiy hisoblanadi;
- Samaradorlikni baholash: O'qitish natijalari doimiy monitoring qilinadi va kerakli holatlarda o'quv dasturini yanada takomillashtirishga harakat qilinadi.

4. JAVOBGARLIK

Ushbu Dastur ISO 37001:2025 xalqaro standartining 7.3-band talablari asosida ishlab chiqilgan va «ANOR BANK» AJning korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

№	Dastur ijrosini ta'minlash	Mas'ul
1	Choraklik o'qitish rejasini tayyorlash va tasdiqlash	Komplayens-nazorat boshqarmasi va Personalni boshqarish departamenti
2	Dastur uchun umumiy mas'uliyat va nazorat	Komplayens-nazorat boshqarmasi
3	O'qitish materiallarini ishlab chiqish, yangilash va takomillashtirish	O'qitish uchun mas'ul xodimlar
4	O'qitishning o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini monitoring qilish	Komplayens-nazorat boshqarmasi
5	Hujjatlashtirish, hisobotlarni tayyorlash va saqlash	Personalni boshqarish departamenti
6	O'qitishdan o'tmaslik holatlarini ko'rib chiqish va intizomiy choralar qo'llash	Komplayens-nazorat boshqarmasi va Personalni boshqarish departamenti taqdimnomasiga asosan Xodimlar sifatini baholash va rivojlantirish qo'mitasi

5. DASTUR TUZILISHI

Dasturda ikki turdagi o'qitish nazarda tutilgan:

- Standart o'qitish – barcha xodimlar uchun majburiy bo'lgan umumiy baza xabardorligi;
- Xavfga asoslangan maxsus o'qitish – xodimning korrupsiyaviy xavf darajasiga qarab chuqurroq va yo'naltirilgan o'qitish (ayniqsa, kredit va filial yo'nalishlari uchun).

STANDART O'QITISH DASTURI

№	Mavzu nomi	Maqsad	Asosiy mavzular	Davomiyligi
1.	Korrupsiya tushunchasi va uning bank sohasidagi ko'rinishlari	Xodimlarda korrupsiyaga nisbatan aniq va yagona tushunchani shakllantirish	<ul style="list-style-type: none"> • Korrupsiya tushunchasi • Uning shakllari va sabablari • Bank tizimidagi tipik holatlar • Xizmat vakolatidan shaxsiy manfaat uchun foydalanish • Poraxo'rlik va noqonuniy imtiyozlar 	20 daqiqa
2.	Qonunchilik va ichki hujjatlar	Xodimlarni qonun va ichki tartiblar bilan to'liq tanishtirish	<ul style="list-style-type: none"> • Korrupsiyaga qarshi qonunchilik • Bankning ichki siyosati va yo'riqnomalar • Xodimlarning huquq va majburiyatlari • Taqiqlangan harakatlar 	20 daqiqa
3.	Manfaatlar to'qnashuvi va sovg'alar siyosati	Amalda eng ko'p uchraydigan xavflarni tushuntirish	<ul style="list-style-type: none"> • Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasi • Qarindoshlik va affillangan shaxslar • Sovg'alar qabul qilish tartibi • Biznes mehmondo'stligi • Deklaratsiya to'ldirish shartlari 	20 daqiqa

№	Mavzu nomi	Maqsad	Asosiy mavzular	Davomiyligi
4.	Mijozlar va kontragentlar bilan ishlashda xavf-xatarlar	Filialarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish	<ul style="list-style-type: none"> • Kredit ajratish jarayoni • Xizmatni tezlashtirish uchun norasmiy talablar • Xarid va tender jarayonlari • Kontragentlar bilan munosabatlar 	20 daqiqa
5.	Xabar berish va javobgarlik	Xodimlarga xabar berish mexanizmlarini tushuntirish	<ul style="list-style-type: none"> • Ishonch kanallari • Anonim murojaat • Murojaatni ko'rib chiqish tartibi • Intizomiy va jinoiy javobgarlik • Halollik tamoyili • Rahbar namunasi • Xodim odob-axloqi 	20 daqiqa

XAVFGA ASOSLANGAN MAXSUS O'QITISH DASTURI

Xavf darajasi	Asosiy mavzular (qo'shimcha chuqurlashtirilgan)	O'qitish shakllari	Muntazamligi	Davomiyligi
Yuqori xavf	<ul style="list-style-type: none"> • Bank xizmatlarini ko'rsartishdagi asosiy korrupsiyaviy xavflar • Uchinchi tomonlar (yetkazib beruvchilar, agentlar, baholovchilar) majmuaviy tekshiruv (due diligence) va monitoring • Shartnomalar tuzish va tender jarayonlaridagi xavflar (raqobatni cheklash va turli hil korrupsiyaviy sxemalar) • Manfaatlar to'qnashuvi va affillangan shaxslar bilan ishlashda amaliy qaror qabul qilish • Katta summali operatsiyalarda qizil bayroqlar (red flags) va ularni aniqlash • Xabar berish mexanizmlari va himoya choralari (whistleblowing) 	Texnik mashg'ulotlar, amaliy keyslar tahlili, guruhli muhokamalar, real holatlar misollari	Yangi lavozimga tayinlanganda	3-4 soatdan 2 kun, umumiy 6-8 soat
			Har yili kamida 1 marotaba	3-4 soatdan 1 kun
			Bank tizimida korrupsiyaviy holatlar vujudga kelganda ogohlikka chaqirish sifatida	3-4 soatdan 1 kun
O'rta xavf	<ul style="list-style-type: none"> • Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va ichki nazorat choralari • Moliyaviy operatsiyalar va hisobotlarda xavflar 	Texnik mashg'ulotlar, interaktiv vazifalar, keyslar tahlili	Yangi lavozimga tayinlanganda	2-4 soat

Xavf darajasi	Asosiy mavzular (qo'shimcha chuqurlashtirilgan)	O'qitish shakllari	Muntazamligi	Davomiyligi
	<ul style="list-style-type: none"> • Yetkazib beruvchilar va kontragentlar bilan munosabatlardagi asosiy xatarlar • Manfaatlarni to'qnashuvini boshqarish amaliyoti • Xabar berish tartibi va anonimlik kafolatlari 		Har yili kamida 1 marotaba	2–4 soat

UCHINCHI TOMONLAR VA YETKAZIB BERUVCHILAR UCHUN MAXSUS O'QITISH DASTURI

Ushbu dastur Bank hududida yoki uning nomidan faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatuvchi uchinchi tomonlar xodimlari (klinining, qo'riqlash, texnik xizmat, transport, umumiy ovqatlanish tashkilotlari va boshqalar) hamda korrupsiyaviy xavfi pastdan yuqori bo'lgan yetkazib beruvchilar uchun amal qiladi. O'qitish soddalashtirilgan va amaliy yo'naltirilgan holda o'tkaziladi.

Xavf darajasi / Guruh	Asosiy mavzular	O'qitish shakllari	Muntazamligi	Davomiyligi
Past xavf	<ul style="list-style-type: none"> • Bankning korrupsiyaga qarshi siyosati va uchinchi tomonlar uchun majburiy talablar. • Sovg'alar, mehmondo'stlik va noqonuniy imtiyozlar taqiqlanishi • Bank xodimlari bilan munosabatlarda taqiqlangan harakatlar • Manfaatlarni to'qnashuvi holatlari • Shubhali holatlarni xabar berish mexanizmlari (aloqa kanallari) 	Onlayn video-modullar, qisqa briefing, prezentatsiya	Shartnoma imzolanganida	30–45 daqiqa
			Har yili kamida 1 marotaba	
O'rta va yuqori xavf	<ul style="list-style-type: none"> • Bank bilan ishlashdagi korrupsiyaviy xavflar • Shartnomadagi korrupsiyaga qarshi kurashish majburiyatlar; • "Qizil bayroqlar" (red flags) va ularga munosabat • Raqobatni cheklash va boshqa sxemalarni oldini olish • Javobgarlik choralari va shaffoflik talablari 	Onlayn vebinar, interaktiv video-mashg'ulot	Shartnoma imzolanganida	45–60 daqiqa
			Har yili kamida 1 marotaba	

6. O'QITISHNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

Rejalashtirish

Har chorkda Komplayens-nazorat boshqarmasi va Personalni boshqarish departamenti hamkorlikda choraklik o'qitish rejasi ishlab chiqiladi va Bank Boshqaruv Raisi tomonidan tasdiqlanadi. Reja xavf-xatar darajasi, lavozimlar va bo'limlar bo'yicha batafsil belgilangan bo'lib, resurslar va muddatlarni hisobga oladi.

Dastur ijrosini ta'minlash

Dastur ijrosi shakli xodimning ish joyi va holatiga qarab belgilanadi:

- Texnik o'quv shaklida – markaziy apparat va bo'linmalarda ishlaydigan xodimlar uchun;
- Masofaviy shaklida – uzoq hududlardagi bo'linmalar xodimlari va yetkazib beruvchilar uchun (video-materiallar, onlayn vebinarlar).

Yangi qabul qilingan xodimlar uchun dastlabki o'qitish ishga qabul qilingan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida Personal adaptasiyasi to'g'risidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Hujjatlashtirish

Har bir o'qitish turi bo'yicha quyidagilar rasmiy ravishda qayd etiladi:

- O'qitishdan o'tgan xodimlar ro'yxati;
- O'qitish sanasi va davomiyligi;
- O'qitish shakli va mazmuni;
- O'qitish yakuni bo'yicha test natijasi (ko'zda tutilgan holatlarda).

Barcha hujjatlar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi doirasidagi hujjatlar boshqaruvi tartibiga muvofiq Personalni boshqarish departamentida saqlanadi.

Komplayens-nazorat boshqarmasi o'qitishning o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini doimiy monitoring qiladi. Har chorakda o'qitish qamrovi va natijalari bo'yicha hisobot tayyorlanadi va Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga taqdim etiladi.

7. SAMARADORLIKNI BAHOLASH

Asosiy baholash ko'rsatkichlari:

- Xodimlarning o'qitish qamrovi darajasi;
- Ichki auditlar va tekshiruvlar natijasida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar bilan bog'liq nomuvofiqliklar sonining kamayishi;
- Xodimlarning bilim va ko'nikmalar darajasi bo'yicha o'tkaziladigan so'rovnomalar natijalari.

Baholash usullari:

- O'qitishdan avval va keyin o'tkaziladigan bilim darajasi bahosi (ko'zda tutilgan holatlarda);
- Xodimlar o'rtasida o'tkaziladigan so'rovnomalar;
- Ichki auditlar va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi monitoring natijalari;
- Xabar berish kanallariga kelib tushgan shubhali holatlar sonidagi o'zgarishlar.

8. YAKUNIY QOIDALAR

Ushbu Dastur «ANOR BANK» AJ Kuzatuv kengashi tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va 2026 yil davomida amal qiladi.

Dasturga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'zgarishlar bo'lganda;
- Ichki audit yoki monitoring natijasida dasturning samarasizligi aniqlanganda;
- Bank faoliyatining xususiyatlari yoki tashkiliy tuzilmasi o'zgartirildi;
- Boshqaruv organlari qarori bilan.

Kirildi:

Komplyens-nazorat boshqarmasi boshlig'i

D. Xushnazarov

Kelishildi:

Boshqaruv raisi

Sh. Akramov

Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari

E. Nadjimitdinov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

M. Nurutdinova

Boshqaruv raisi o'rinbosari

E. Kadirov

Boshqaruv raisi o'rinbosari

A. Saydullayev

Boshqaruv raisi o'rinbosari

S. Xan

Boshqaruv raisi o'rinbosari

M. Avazov

Yuridik boshqarma boshlig'i

T. Zanaxov

Bosh buxgalter

U. Babayev

Boshqaruvchi direktor

A. Bakiyev

Ichki audit departamenti direktori

S. Usmanov

Ichki nazorat departamenti direktori

M. Pulatova

Risk menejmenti departamenti direktori

D. Ibragimova

Personalni boshqarish departamenti direktori v.b

A. Ilxomjonov